



INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Davletov Ikram Raximberganovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
i.davletov@tsue.uz

Fayziyev Oybek Raximovich

Toshkent davlat agrar universiteti,
"Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
fayziyev.oybek@mail.ru

Shakirov Rustambek Toxir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7935626>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil
Ma'qullandi: 13-May 2023 yil
Nashr qilindi: 15-May 2023 yil

KEY WORDS

intellektual mulk obyektlari, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, baholash, xarajatlar, xarajatli va daromadli yondashuv, dastlabki qiymati, o'rnini bosadigan qiymat metodi, tiklash qiymati metodi, o'tmishdagi xarajatlar metodi.

ABSTRACT

Ushbu tezis intellektual mulk obyektlarini baholash masalalariga bag'ishlangan. Muallif tomonidan intellektual mulk obyektlarining xo'jalik yurituvchi subyektga kelib tushish manbalaridan kelib chiqqan holda ularni baholashning har xil variantlari o'rganilgan. Intellektual mulk obyektlarining dastlabki qiymatini shakllantiruvchi xarajatlar ro'yxati tadqiq qilingan..

Iqtisodiyotning modernizatsiyalash hamda jahon hamjamiyatiga uyg'unlashuvining rivojlanishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida intellektual mulk obyektlaridan foydalanishning ahamiyati oshib bormoqda. Shu sababli xo'jalik yurituvchi subyektlarda intellektual mulk obyektlarining hisobini tashkil etish va uni takomillashtirish zaruriyati vujudga kelmoqda. Intellektual mulk obyektlari hisobini tashkil etishda ularning dastlabki qiymatini aniqlash, ya'ni ularni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Intellektual mulk obyektlarini baholash – bu intellektual mulk obyektlarini buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettiriladigan qiymatining puldagi ifodasini aniqlash [1].

Buxgalteriya hisobida intellektual mulk obyektlari(IMO)ni baholashning ikkita turi qo'llaniladi: dastlabki qiymati bo'yicha baholash va qoldiq qiymati bo'yicha baholash.

"Nomoddiy aktivlar" nomli 7-sonli BHMSda intellektual mulk obyektlarini xo'jalik yurituvchi subyektga kelish usuliga ko'ra ularni baholashning har xil variantlarini nazarda tutadi.

"Nomoddiy aktivlar" nomli 7-sonli BHMSning 14-bandiga muvofiq intellektual mulk obyektlarini haq evaziga xarid qilish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarga quyidagilarni kiritish

mumkin:

- huquqdan voz kechish (xarid qilish) shartnomasiga muvofiq huquq egasiga (sotuvchiga) to'langan summalar;
- huquq egasining mutlaq huquqidan voz kechishi (xarid qilish) munosabati bilan amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazish yig'implari, davlat bojlari, patent bojlari va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;
- bojxona bojlari va yig'implari;
- nomoddiy aktivlarni xarid qilish munosabati bilan to'lanadigan soliqlar va yig'implar summolari (agar ular qoplanmasa);
- nomoddiy aktivlarni xarid qilish bilan bog'liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to'langan summalar;
- nomoddiy aktivlar vositachilar orqali xarid qilinganda ularga to'lanadigan haqlar;
- nomoddiy aktivlarni yetkazib berish (yaratish) riskini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar;
- aktivdan maqsadga ko'ra foydalanish uchun uni yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlar [2].

7-son BHMSning 14-bandi ikkinchi xat boshiga muvofiq intellektual mulk obyektlarini xarid qilishda haq to'lash bilan bilan bog'liq xarajatlar (akkreditiv ochish bo'yicha xarajatlar, o'tkazmalar uchun bankning vositachilik haqi, nomoddiy aktivlarni chet el valyutasiga xarid qilishda valyuta konvertatsiyasi bo'yicha vositachilik haqi va bankning boshqa xizmatlari), xarid qilish bo'yicha shartnomalarni tayyorlash va ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar hamda aktivlarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlar intellektual mulk obyektlarining boshlang'ich qiymatiga kiritilmasligi hamda ular sodir bo'lgan hisobot davrida xarajatlar sifatida tan olinishi kerak.

jadval

Nomoddiy aktivlarni baholash¹

№	Olinish usuli	Boshlang'ich qiymati	Asos
1.	Haq evaziga olinganida	Haqiqiy xarajatlar va foydalanishga yaroqli holga keltirish xarajatlari summasi	№7 BHMS 14-bandi
2.	Korxonaning o'zida yaratish	Yaratishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasi	№7 BHMS 15-bandi
3.	Pul mablag'laridan tashqari mulklarga ayirboshlash	Majburiyatlarni (to'lovni) pul ko'rinishida bo'lmagan mablag'lar bilan bajarish nazarda tutiladigan shartnomalar bo'yicha olingan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati deb korxonadan berilgan yoki berilishi lozim bo'lgan qimmatliklarning joriy qiymati tan olinadi.	№7 BHMS 21-bandi
4.	Ustav kapitaliga hissa tariqasida	Ta'sischi tomonidan kelishilgan baholarda	№7 BHMS 17-bandi
5.	Qaytarib bermaslik sharti bilan olish	Agarda joriy qiymat ushbu turdagi nomoddiy aktivlar uchun faol bozorni hisobga olgan holda belgilangan bo'lsa, ishonchli hisoblangan joriy qiymat bo'yicha aniqlanadi. Ushbu turdagi nomoddiy aktivlar uchun	№7 BHMS 18-bandi

¹ 7-sonli "Nomoddiy aktivlar" nomli BHMS asosida muallif tomonidan tayyorlangan

	faol bozor mavjud bo'lmagan taqdirda, ularning boshlang'ich qiymati nominal qiymat bo'yicha yoki agarda nomoddiy aktivni foydalanishga yaroqli holatga keltirish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlar mavjud bo'lsa, ularning summasi bo'yicha aniqlanadi.	
--	--	--

Sotib olingan IMOga haq to'lashda, agar to'lovlarning muddatini uzaytirish yoki kechiktirish ko'zda tutilgan bo'lsa, haqiqiy xarajatlar buxgalteriya hisobiga to'liq kreditor qarz summasida qabul qilinadi. IMOni sotib olishda ularni rejalashtirilgan maqsadlarda ishlatish uchun yaroqli holga keltirish bo'yicha xarajatlar vujudga keladi. Bular ushbu ishlarda band bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash, sug'urta va ta'minot uchun tegishli ajratmalar, moddiy va boshqa xarajatlar. Qo'shimcha xarajatlar IMOning dastlabki qiymatini ko'paytiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning o'zida yaratilgan nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati qoplanadigan soliqlardan tashqari, yaratish, tayyorlash bilan bog'liq barcha xarajatlardan tashkil topadi (sarflangan moddiy resurslar, mehnat haqi, kontragent shartnomalari bo'yicha chet tashkilotlar xizmatlari, patentlar, guvohnomalar va shunga o'xshashlarni olish bilan bog'liq patent to'lovlari).

IMO quyidagi hollarda xo'jalik yurituvchi subyektning o'zida yaratilgan hisoblanadi:

- xizmat majburiyatlarini bajarish yoki ish beruvchining muayyan topshirig'i bo'yicha olingan intellektual faoliyat natijalariga mutlaq huquq;
- buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq muallif tomonidan olingan, intellektual mulk natijalariga mutlaq egalik huquqi buyurtmachi tashkilotga tegishli;
- tovar belgisi guvohnomasi yoki tovar kelib chiqqan joydan foydalanish huquqi tashkilot nomiga berilgan bo'lsa [3].

Umum xo'jalik va boshqa shunga o'xshash xarajatlar, ular nomoddiy aktivlarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan hollardan tashqari, nomoddiy aktivlarni sotib olish, yaratish uchun qilingan haqiqiy xarajatlarga qo'shilmaydi.

Majburiyat(to'lov)larni natural (barter) ko'rinishida bajarish ko'zda tutilgan shartnomalar bo'yicha olingan nomoddiy aktivlarni dastlabki qiymati xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan berilgan yoki berilishi lozim bo'lgan moddiy boyliklarning qiymati bilan ifodalanadi.

Bunday shartnomalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan berilgan yoki berilishi lozim bo'lgan moddiy boyliklarning qiymatini aniqlash imkoni bo'lmasa, olingan nomoddiy aktivlar qiymati shunga o'xshash nomoddiy aktivlar ushbu vaziyatlarda sotib olinayotgan baholardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shilgan IMOning dastlabki qiymati ta'sis hujjatlariga muvofiq ta'sischi(ishtirokchi)lar bilan kelishilgan ularning puldagi bahosi tan olinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sovg'a qilish shartnomasi bo'yicha olingan va boshqa bepul olinish hollarida IMOning dastlabki qiymati ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi bozor qiymati tan olinadi. O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilikka muvofiq qabul qilinayotgan IMOni qator hollarda majburiy ekspertiza qilish ko'zda tutilgan:

- agar kelishuvlarga mamlakatga va mahalliy hokimiyatlarga to'liq yoki qisman tegishli

bo'lgan IMO jalb qilinsa;

- IMO tekinga olinganda tashqi savdo barter operatsiyalarida;
- IMO MChJ va OAJ ustav kapitaliga ulush sifatida olinganda, agar ularning nominal qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan oshsa.

Ekspert baholash – bu manfaatdor bo'lmagan malakali baholovchi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan mustaqil baholash.

IMOni baholash quyidagi yondoshuvlarga asoslanadi:

- xarajatli;
- daromadli.

Xarajatli yondoshuvning mohiyati baholanayotgan mulkning hozirgi (joriy) bozor qiymatini uni yaratish uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlarni jamlash orqali aniqlashdan iborat. Shu tarzda olingan yangi IMO qiymati uning hayoti davomida to'plangan o'zgarishlarni hisobga olgan holda tuzatilgan, qoidaga ko'ra, baholanayotgan obyektning qiymatini uning eskirishi hisobiga pasayishida ifodalanadi. Mazkur mulkni sotib olish uchun zarur bo'lgan xarajatlar summasi 3 ta metod bilan aniqlanishi mumkin.

1. O'rnini bosadigan qiymat metodi. Ma'lum holatlarda IMOni baholashda baholash printsiplaridan biri – o'rnini bosish printsiptini qo'llash mumkin. U mulkning eng yuqori bahosi shunga o'xshash naf keltiradigan obyektни sotib olishda to'lanadigan eng kam summa bilan aniqlanishini belgilaydi. Bu holda o'rnini bosadigan qiymatdan foydalanilib, tayinlanishi va funktsional imkoniyatlari bo'yicha baholanayotgan IMOga ekvivalent bo'lgan yangi aktivning qiymati tushuniladi. Bunda obyektning tashqi ko'rinishi va tuzilishidagi farqlarga ruxsat etiladi. Intellektual mulk obyektlarini baholash masalasida ta'kidlash joiz-ki, ushbu obyektlarni yaratish qiymatini aniqlashning murakkabligi, hamda bunday qiyinchilik oqibatida, ko'p hollarda esa foydaliligi o'xshash obyektlar bo'yicha zarur axborotlarni izlab topish imkoni yo'qligidan ularga nisbatan o'rnini bosadigan qiymat usulini qo'llash qiyin.

2. Tiklash qiymati metodi. Ayrim IMOni baholashda baholanayotgan aktivning yangi aynan o'xshash nusxasini yaratish uchun zarur bo'ladigan xarajatlar summasini iqtisodiyotning ushbu aktiv ishlatilayotgan mintaqasi va tarmog'idagi tovarlar va xizmatlarning amal qilayotgan bahosi hamda ishchi kuchining qiymatidan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilish mumkin. Shu tarzda aniqlanadigan obyekt qiymati tiklash qiymati deb nomlanadi. Amaliyotda bunday qiymatni tuzish barcha sarf-xarajatlarni o'z ichiga olgan smetani tuzishga o'xshaydi. Mazkur metod noyob IMOni baholashda asosiy bo'lib hisoblanadi.

3. O'tmishdagi xarajatlar metodi. Bu metod baholanayotgan IMO qaysi korxonada yaratilgan bo'lsa, shu korxonaning buxgalteriya hujjatlarida aks ettirilgan haqiqiy xarajatlarni hisobga olishga asoslangan [4].

Daromad metodi xo'jalik yurituvchi subyektning IMOni ishlatishdan erishgan xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalarini hisoblashni nazarda tutadi. Bu metod ancha shartli bo'lib, uni qiymat ifodasida tasavvur qilish qiyin. U hisob-kitob uchun axborotlarni tayyorlashda, hamda vaqt va inflyatsiya omillarini hisobga olishda sezilarli darajada mehnat xarajatlarini talab qiladi. Mazkur metod obyektning oldi-sotdi shartnomasini va obyektни, uning balans qiymati sotish qiymatidan farq qilganida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektga obyektдан foydalanish huquqlarini berish litsenzion shartnomasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilish uchun qiziqarli hisoblanadi.

Shunday qilib, korxonalarda intellektual mulk obyektlarini hisobga olishda ularning

dastlabki qiymatini aniqlash, ya'ni baholash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Korxonalarda intellektual mulk obyektlarini baholashni to'g'ri tashkil etish maqsadida uni yaratish yoki xarid qilish maqsadida amalga oshirilgan xarajatlarni aniq va to'liq hisobga olinishini ta'minlash intellektual mulk obyektini baholashni, ya'ni uning dastlabki qiymatini to'g'ri shakllantirishni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida intellektual mulk obyektlarini buxgalteriya hisobida to'g'ri hisobga olinishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Давлетов И.Р. Интеллектуал мулк объектларини баҳолашга ёндашувлар. "Agro ilm" ("O'zbekiston qishloq xo'jalig" jurnali ilmiy ilovasi). Toshkent, 2017, №1. 91-92 б.
2. Nomoddiy aktivlar. 7-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2005 yil 25 martdagi 35-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 27 iyunda 1485-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/acts/627308>
3. Хахонова Н.Н. Учет нематериальных активов. Учетно-практическая пособие. Ростов-на-Дону, «Феникс», 2001, 212 с
4. O'zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standarti. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2020-yil 1-maydagi 01/11-15/62-son buyrug'iga 1-ILOVA

INNOVATIVE
ACADEMY